«InFinBank» AJ
AO «InFinBank»

«TASDIQLANGAN»
«УТВЕРЖДЕНО»

«InFinBank» AJ Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan /Общим Собранием Акционеров АО «InFinBank»

Kuzatuv kengashi raisi v.b./ И.о. Председателя Наблюдательного совета

Lavozimi/Должность

Z.S. Abdullayev/Абдуллаев З.С.

F.I.SH./Ф.И.О.

Imzo/Подпись

Sana/Дата

«InFinBank» AJ Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 30.06.2026-yildagi 76-sonli bayonnomasi / Протокол Общего собрания акционеров АО «InFinBank» № 76 от 30.06.2026г.

Ro‘yxatdan o‘tkazildi /Регистрация:

Ro‘yxat raqami: N-16

Ro‘yxat sanasi: 15.02.2026-yil

«Invest Finance Bank»
Aksiyadorlik jamiyatining
BOSHQARUVI TO'G'RISIDA NIZOM

ПОЛОЖЕНИЕ О ПРАВЛЕНИИ
Акционерного общества
«Invest Finance Bank»

Hujjat «InFinBank» AJning mulki hisoblanadi. Ushbu hujjatning mazmuni butunligicha yoki qisman ko‘chirilishi yoki Bank xodimi bo‘lmagan uchinchi shaxslarga Bank bilan oldindan kelishilmagan holda taqdim etilishi mumkin emas. Har qanday o‘zgarishlar mazkur hujjatning asl nusxasiga va nazorat ostidagi nusxalariga kiritiladi.

Документ является собственностью АО «InFinBank». Содержание данного документа не может воспроизводиться целиком или по частям, либо передаваться третьим лицам, не являющимися работниками Банка, без предварительного согласования с Банком. Любые изменения вносятся в оригинал и только в контролируемые копии настоящего документа

ОГЛАВЛЕНИЕ/ MUNDARIJA:

1. MAQSAD/ЦЕЛЬ....4
2. QO'LLANILISH SOHASI/ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ....4
3. HAVOLALAR/ССЫЛКИ....4
4. JAVOBGARLIK/ОТВЕТСТВЕННОСТЬ....5
5. BANK BOSHQARUVI ISHINI TASHKIL ETISH/ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА....5
6. BANK BOSHQARUVINING ISH TARTIBI/ ПОРЯДОК РАБОТЫ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА....17
7. SAQLASH/ХРАНЕНИЕ....9
8. XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ....9

1. MAQSAD

1.1. Ushbu Nizom "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda - "bank") boshqaruvining maqomini belgilaydi va faoliyatini tartibga soladi, uning raisini, a'zolarini tayinlash va tasdiqlash tartibini, shuningdek ularning huquq va majburiyaitlarini belgilab beradi.

1.2. Bank Boshqaruvi bankning kollegial ijro organi hisoblanadi va bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi.

2. QO'LLANILISH SOHASI

2.1. Ushbu Nizomning talablari bankning korporativ boshqaruvida ishtirok etuvchi barcha bo'linmalariga va mansabdor shaxslariga – boshqaruv a'zolariga talluqlidir.

3. HAVOLALAR

3.1. Ushbu Nizom quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan:

3.1.1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;

3.1.2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi Qonuni;

3.1.3. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni;

3.1.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizomi;

3.1.5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida" gi Nizomi;

3.1.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizom;

3.1.7. Bank Ustavi;

3.1.8. ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimlari.

4. JAVOBGARLIK

4.1. Bank Boshqaruvi a'zolari bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim va o'z

1. ЦЕЛЬ

1.1. Настоящее Положение определяет статус и регламентирует работу Правления Акционерного общества «Invest Finance Bank» (далее - «Банк»), порядок назначения и утверждения его Председателя, членов Правления, а также их права и обязанности.

1.2. Правление Банка является коллегиальным исполнительным органом Банка, осуществляющим руководство текущей деятельностью Банка.

2. ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ

2.1. Требования настоящего Положения распространяется на все подразделения и должностные лица - Членов Правления, участвующих при корпоративном управлении Банка.

3. ССЫЛКИ

3.1. Настоящее Положение разработано в соответствии с нижеследующими нормативно-правовыми актами:

3.1.1. Закон Республики Узбекистан «О Банках и Банковской деятельности»;

3.1.2. Закон Республики Узбекистан «О Центральном Банке Республики Узбекистан»;

3.1.3. Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров»;

3.1.4. Положение Центрального Банка Республики Узбекистан «О корпоративном управлении в коммерческих Банках»;

3.1.5. Положение Центрального Банка Республики Узбекистан «О порядке и условия выдачи разрешений на Банковскую деятельность»**;**

3.1.6. Положение Центрального банка Республики Узбекистан «О требованиях к системе управления рисками банков и банковских групп»;

3.1.7. Устав Банка;

3.1.8. ISO 9001:2015 Системы менеджмента качества.

4. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

4.1. Члены Правления Банка

funksiyalarini bajarmagaligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida bankka etkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga, Bank Ustaviga va mazkur Nizomga muvofiq, bank oldida to‘liq javobgar bo'ladi. Bunda bankka zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.	должны действовать в интересах Банка и несут ответственность перед Банком за ущерб, причиненный ему в результате неисполнения или ненадлежащего исполнения ими своих функций, в полном объеме, в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и Уставом Банка, и настоящим Положением. При этом не несут ответственность члены Правления Банка, не принимавшие участия в голосовании или голосовавшие против решения, которое повлекло причинение обществу убытков.
4.2. Bank Boshqaruvi a'zolari o'zlariga xizmat lavozimi bilan berilgan huquqlardan uchinchi shaxslarning maqsadlari va manfaatlari yo'lida foydalanishlari mumkin emas.	4.2. Члены Правления Банка не должны использовать права, предоставленные им служебным положением, в целях и интересах третьих лиц.
4.3. Bank Boshqaruvi a'zolari bank mulkini tasarruf etishdan shaxsiy naf olish yo'lida foydalanish xatti-harakatlariga yo'l qo'yishlari mumkin emas.	4.3. Члены Правления не должны допускать действий, по извлечению личных выгод из распоряжения имуществом Банка.
4.4. Bank Boshqaruvi a'zolari tadbirkorlik xatari bo'yicha faqat bank Kuzatuv kengashi va bank aksiyadorlari oldida javobgar hisoblanadilar.	4.4. Члены Правления Банка несут ответственность по предпринимательскому риску только перед Наблюдательным советом и акционерами Банка.
4.5. Bank Boshqaruvi a’zolari bank va tijorat siridan shaxsiy maqsadlarda g‘ayriqonuniy foydalanganlik yoki uni oshkor qilganlik uchun javobgarlikga tortiladilar;	4.5. Члены Правления Банка несут ответственность за неправомерное использование или разглашение банковской и коммерческой тайны в личных целях.
4.6. Agar tuzilayotgan bitim taraflaridan biri bank bo'lib hisoblansa va bank boshqaruvining a'zosi bitimdan moliyaviy manfaatdor bo'lsa, u ushbu masala bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar o'z manfaatdorligi to'g'risida ma'lum qilishi va ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak.	4.6. В случае если член Правления Банка является финансово - заинтересованным в сделке, одной из сторон которой является Банк, он обязан сообщить о своей заинтересованности до момента принятия решения и в голосовании по указанному вопросу не принимает участия.
4.7. Boshqaruvning har bir a’zosi o‘ziga biriktirilgan faoliyat yo‘nalishi doirasida o‘z lavozim majburiyatlarini hamda Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruv Raisining topshiriqlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida yetkazilgan zararlar va yuzaga kelgan xatarlar uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.	4.7. Каждый член Правления несет персональную ответственность за убытки и риски, возникшие вследствие неисполнения или ненадлежащего исполнения им своих должностных обязанностей и поручений Наблюдательного совета или Председателя Правления в рамках курируемого направления деятельности.
4.8. Boshqaruv a’zolarining faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha shaxsiy javobgarlik chegaralarini belgilash:	4.8. **Разграничение персональной ответственности членов Правления по направлениям деятельности:**

4.8.1. Boshqaruv Raisi: Bankka umumiy rahbarlik qilish, tasdiqlangan Rivojlanish strategiyasini bajarish, ichki nazorat tizimini, ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi strategiyani tashkil etish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar va bank sirini himoya qilish, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash, shuningdek, Bank faoliyatining umumiy moliyaviy-xo'jalik natijalari uchun javobgar bo'ladi.	**4.8.1. Председатель Правления:** Несет ответственность за общее руководство Банком, выполнение утвержденной Стратегии развития, организацию системы внутреннего контроля, Стратегии в области ESG и устойчивого развития, обеспечение информационной и кибербезопасности, а также защиту персональных данных и банковской тайны, своевременное исполнение решений Общего собрания акционеров и Наблюдательного совета, а также за общие финансово-хозяйственные результаты деятельности Банка
4.8.2. Boshqaruv a'zosi (G'aznachilikni nazorat qiluvchi Boshqaruv Raisi o'rinbosari) Bank likvidliligini ta'minlash, Markaziy bankning prudensial normativlariga rioya etish, aktiv va passivlarni samarali boshqarish (shu jumladan APBK doirasida), shuningdek, valyuta va pul bozorlarida limitlarni o'z vaqtida belgilash hamda nazorat qilish uchun javobgar bo'ladi.	**4.8.2. Член Правления (Заместитель Председателя Правления, курирующий казначейство):** несет ответственность за обеспечение ликвидности Банка, соблюдение пруденциальных нормативов Центрального банка, эффективное управление активами и пассивами (КУАП), своевременное установление и контроль лимитов на валютном и денежном рынках.
4.8.3. Boshqaruv a'zosi (Boshqaruv Raisi o'rinbosari/ Moliyaviy direktor): Bankning moliya bloki va buxgalteriyasini bevosita nazorat qiladi hamda soliqni rejalashtirish, barqaror rivojlanish sohasidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (ESG) standartlarini hisobga olgan holda hisob siyosatini shakllantirish, shuningdek, Bankning moliyaviy, boshqaruv va regulyatorlik (nazorat) hisobotlari haqqoniyligini qat'iy nazorat qilishni tashkil etish uchun umumiy javobgar bo'ladi.	**4.8.3. Член Правления (Заместитель Председателя Правления /Финансовый директор):** осуществляет непосредственное кураторство финансового блока/ бухгалтерии Банка, неся ответственность за налоговое планирование, формирование учетной политики, с учетом стандартов раскрытия информации об устойчивом развитии (ESG), а также за организацию жесткого контроля достоверности финансовой, управленческой и регуляторной отчетности Банка.
4.8.4. Boshqaruv a'zosi (Boshqaruv Raisi o'rinbosari), muammoli aktivlar bilan ishlash yo'nalishini nazorat qiluvchi shaxs: Muammoli qarzdorliklarni (NPL) undirish va qayta tarkiblash (restrukturizatsiya qilish) bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, mablag'larni qaytarish bo'yicha rejali ko'rsatkichlarning bajarilishi, qoplama (voz kechish badali) sifatida Bank balansiga o'tgan mol-mulklarni (shu jumladan, avtotransport vositalari va boshqa garov ta'minotlarini) boshqarish hamda realizatsiya qilish (sotish), shuningdek, aktivlarning qadrsizlanishidan ko'riladigan zararlarni minimallashtirish (eng kam darajaga tushirish) uchun javobgar	**4.8.4. Член Правления (Заместитель Председателя Правления), курирующий работу с проблемными активами:** несет ответственность за организацию эффективной работы по взысканию и реструктуризации проблемной задолженности (NPL), выполнение плановых показателей по возврату средств, управление и реализацию имущества, перешедшего на баланс Банка в качестве отступного (включая автотранспортные средства и иное залоговое обеспечение), а также за минимизацию убытков от обесценения активов.

bo‘ladi.	
4.8.5. Boshqaruv a’zosi (Boshqaruv Raisi o‘rinbosari), filiallar tarmog‘ini rivojlantirish yo‘nalishini nazorat qiluvchi shaxs: Bankning barcha filiallari va alohida bo‘linmalari tomonidan konsolidatsiyalashgan biznes-rejalarning hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarning bajarilishi, yagona xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya etilishi, filiallar operatsion xavfsizligi, shuningdek, Bankning hududlar bozorlaridagi ishtirokini samarali kengaytirish uchun javobgar bo‘ladi.	**4.8.5. Член Правления (Заместитель Председателя Правления), курирующий развитие филиальной сети:** несет ответственность за выполнение консолидированных бизнес-планов и финансовых показателей всеми филиалами и обособленными подразделениями Банка, соблюдение единых стандартов обслуживания, операционную безопасность филиалов, а также за эффективное расширение присутствия Банка на рынке регионов.
4.8.6. Boshqaruv a’zosi (Boshqaruv Raisi o‘rinbosari), ma’muriy-xo‘jalik faoliyatini/ Ma’muriy departamentini nazorat qiluvchi: Bank faoliyatini moddiy-texnik va xo‘jalik jihatidan samarali ta’minlash, Bankning ko‘chmas mulki va infratuzilmasini boshqarish, hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish (eko-xaridlar), shuningdek, Bank binolarining energiya samaradorligini oshirish standartlarini hisobga olgan holda xarid tartib-taomillarini shaffoflik hamda tejamkorlik prinsiplariga muvofiq o‘tkazish, shuningdek, Bankning barcha binolarida yong‘in xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta’minlash uchun javobgar bo‘ladi.	**4.8.6. Член Правления (Заместитель Председателя Правления), курирующий административно-хозяйственную деятельность/ Административного департамента:** несет ответственность за эффективное материально-техническое и хозяйственное обеспечение деятельности Банка, управление недвижимым имуществом и инфраструктурой Банка, проведение закупочных процедур в соответствии с принципами прозрачности и экономичности и минимизации негативного воздействия на окружающую среду (эко-закупки), а также за повышение энергоэффективности зданий Банка, а также за обеспечение пожарной безопасности и охраны труда во всех зданиях Банка.
4.8.7. Boshqaruv a’zosi (Boshqaruv Raisi o‘rinbosari), korporativ biznes yo‘nalishini nazorat qiluvchi: Korporativ blokning rejali ko‘rsatkichlarini bajarish, mas'uliyatli moliyalashtirish amaliyotini joriy etish, qarz oluvchilarning ESG-xarakteristikalarini baholash, yuridik shaxslarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish va uning sifatini ta’minlash, shuningdek, yirik kredit tavakkalchiliklarining konsentratsiyasini (to‘planishini) minimallashtirish uchun javobgar bo‘ladi.	**4.8.7. Член Правления (Заместитель Председателя Правления) курирующий корпоративный бизнес:** несет ответственность за выполнение плановых показателей корпоративного блока, внедрение практики ответственного финансирования, оценку ESG-характеристик заемщиков, диверсификацию и качество кредитного портфеля юридических лиц, а также за минимизацию концентрации крупных кредитных рисков.
4.8.8. Boshqaruv a’zosi (Boshqaruv Raisi o‘rinbosari), chakana biznes yo‘nalishini nazorat qiluvchi: Chakana mahsulotlarni rivojlantirish, jismoniy shaxslarning kredit portfeli sifati, aholi omonatlari (depozitlari) bazasining barqarorligi hamda bank xizmatlari	**4.8.8. Член Правления (Заместитель Председателя Правления) курирующий розничный бизнес:** несет ответственность за развитие розничных продуктов, качество портфеля кредитов физических лиц, стабильность базы вкладов населения и соблюдение законодательства о

iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi uchun javobgar bo'ladi.

4.8.9. Boshqaruv a'zosi (Boshqaruv Raisining AT va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari/ Ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha bosh direktor (Chief data officer): Bankning avtomatlashtirilgan tizimlari uzluksiz ishlashi, AT-strategiyasining amalga oshirilishi, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar hamda bank sirining himoya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

4.8.10. Boshqaruv a'zosi - Yuridik departament direktori (Bosh yurist): Bank faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, Boshqaruv tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi, yirik bitimlar, ta'minot shartnomalari hamda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishda huquqiy tavakkalchiliklarni minimallashtirish, shuningdek, sud-da'vo ishlarining samarali yuritilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Boshqaruv tarkibiga kirmaydigan shaxslarning alohida maqomi va javobgarligi:

4.8.11. Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti direktori (CRO) kredit, bozor va operatsion tavakkalchiliklar baholanishining xolisligi, regulyatorlik buzilishlarining o'z vaqtida aniqlanishi, shuningdek, Boshqaruv tomonidan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha "Veto" huquqi qo'llanilishining asoslanganligi yoki uning g'ayriqonuniy ravishda qo'llanilmaganligi uchun Bank Kuzatuv kengashi oldida shaxsan javobgar bo'ladi.

5. BANK BOSHQARUVINING ISHINI TASHKIL ETISH

5.1. BANK BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH TARTIBI

5.1.1. Bank Boshqaruvi a'zolarining soni 5 (besh) kishidan kam bo'lmasligi lozim.

5.1.2. Bank boshqaruvining miqdoriy va shaxsiy tarkibi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

5.1.3. Tavakkalchiliklarni boshqarish

защите прав потребителей банковских услуг.

4.8.9. Член Правления (Заместитель Председателя Правления по ИТ и инновациям/ Главный директор по управлению данными (Chief data officer)): несет ответственность за непрерывность функционирования автоматизированных систем Банка, реализацию ИТ-стратегии, обеспечение защиту персональных данных и банковской тайны.

4.8.10. Член Правления - Директор Юридического департамента (Главный юрист): несет персональную ответственность за правовое обеспечение деятельности Банка, соответствие принимаемых Правлением решений законодательству Республики Узбекистан, минимизацию правовых рисков при заключении крупных сделок, договоров обеспечения и сделок с аффилированными лицами, а также за эффективное ведение судебно-исковой работы.

Особый статус и ответственность лиц, не входящих в состав Правления:

4.8.11. Директор Департамента управления рисками (CRO) несет персональную ответственность перед Наблюдательным советом Банка за объективность оценки кредитных, рыночных, операционных рисков, своевременность выявления регуляторных нарушений, а также за обоснованность или неправомерное неприменение права «Вето» по рассматриваемым Правлением вопросам.

5. ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА

5.1. ПОРЯДОК ОБРАЗОВАНИЯ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА

5.1.1. Количество членов Правления Банка должно составлять не менее 5 (пяти) человек.

5.1.2. Количественный и персональный состав Правления Банка определяется решением Наблюдательного совета Банка.

5.1.3. Директор Департамента

departamenti direktori Bank Boshqaruvi a'zolari tarkibiga kirmaydi, biroq Boshqaruvning barcha majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan majburiy tartibda ishtirok etadi.	управления рисками не входит в состав членов Правления Банка, однако принимает обязательное участие во всех заседаниях Правления с правом совещательного голоса.
5.1.4. Bank boshqaruvining raisi lavozimga Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda Bank Boshqaruvi raisini tayinlash to'g'risidagi qaror xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan konkurs tanlovi asosida qabul qilinishi mumkin. Boshqaruv a'zolari ham shu kabi bank Kuzatuv kengashi tomonidan konkurs tanlovi asosida Bank Boshqaruvi raisning taqdimoti bilan tasdiqlanadi.	5.1.4. Председатель Правления назначается на должность решением Наблюдательного совета Банка, с последующим утверждением Общим собранием акционеров по согласованию с Центральным банком Республики Узбекистан. При этом решение о назначении Председателя Правления Банка могут приниматься, как правило, на основе конкурсного отбора, в котором могут принимать участие иностранные менеджеры. Члены Правления также на основе конкурсного отбора утверждаются Наблюдательным советом Банка по представлению Председателя Правления Банка.
5.1.5. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Boshqaruv a'zolari nomzodi ko'rib chiqilishida va tasdiqlanishida qaror oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.	5.1.5. При рассмотрении и утверждении Наблюдательным советом Банка кандидатур членов Правления решение принимается простым большинством голосов.
5.1.6. Bank Boshqaruvi a'zoligiga nomzodlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash Bank Kuzatuv kengashi tomonidan shaxsiy tartibda amalga oshiriladi. Bank boshqaruvining raisi boshqaruv a'zoligiga nomzodni taqdim etar ekan, shartnoma tuzish shartlari, Boshqaruvdagi faoliyati uchun mukofot haqining miqdori va nomzodning shartnoma tuzishga roziligi to'g'risida nomzodning arizasini ilova qilgan holda axborot beradi.	5.1.6. Рассмотрение и утверждение кандидатур в члены Правления Банка Наблюдательным советом Банка производится в персональном порядке. Председатель Правления Банка, представляя кандидатуру в члены Правления, информирует об условиях заключения контракта, размере вознаграждения за работу в Правлении Банка и согласии кандидата на заключение контракта, подтвержденным заявлением кандидата.
5.1.7. Bank boshqaruviga nomzodlar o'z nomzodlari ko'rib chiqilayotgan bank Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etishga haqlidirlar.	5.1.7. Кандидаты в члены Правления Банка могут присутствовать на заседании Наблюдательного совета Банка при рассмотрении своих кандидатур.
5.1.8. Bank Boshqaruvining raisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasini Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashining raisi imzolaydi. Mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuziladi va har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan shartnoma muddatini uzaytirish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi o'z o'rnida vaqtinchalik bo'lmagan holatlarda	5.1.8. От имени Банка трудовой договор с Председателем Правления Банка заключается Председателем Наблюдательным совета Банка. Трудовой договор заключается сроком на три года с ежегодным принятием решения Общим собранием акционеров о возможности его продления или прекращения. В случае временного отсутствия Председателя

uning funksiyasini belgilangan tartibda tegishli buyruq asosida tayinlanadigan o'rinbosarlaridan biri bajaradi.	Правления Банка его функции осуществляет один из его заместителей, назначаемый в приказном порядке.
5.1.9. Bank Boshqaruvi a'zosi Bank Ustavi, ushbu Nizom talablari, shartnoma shartlarini buzganligi hamda o'z faoliyatida boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'yganligi uchun shartnomani bir vaqtning o'zida bekor qilgan holda egallab turgan lavozimidan ozod etilishi mumkin. Bu haqdagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.	5.1.9. Член Правления Банка за нарушение Устава Банка, требований настоящего Положения, условий договора и иных нарушений в своей деятельности может быть снят с занимаемой должности с одновременным расторжением договора. Решение об этом принимается Наблюдательным советом Банка, большинством голосов.
5.1.10. Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi Raisi tomonidan qo'pol qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilganda yoki Bankning tasdiqlangan yillik biznes-rejasi parametrlari bajarilishi barbod qilinganda (bajarilishi ta'minlanmaganda), u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega.	5.1.10. Наблюдательный совет имеет право досрочного прекращения трудового договора с Председателем Правления Банка при допущении им грубых нарушений или срыва выполнения утвержденных параметров годового бизнес-плана Банка.
5.1.11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan va tasdiqlanadigan Boshqaruv Raisining vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadigan shaxs tomonidan uning vazifalarini vaqtincha bajarishiga Bank aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrga yo'l qo'yiladi.	5.1.11. В случае досрочного прекращения полномочий Председателя Правления, назначаемого и утверждаемого Общим собранием акционеров, допускается временное исполнение его обязанностей лицом, определяемым решением Наблюдательного совета Банка, на период до очередного Общего собрания акционеров Банка.
5.1.12. Bank Boshqaruvining majlislarida departamentlarning direktorlari kun tartibi bo'yicha ekspert xulosasini taqdim etish maqsadida ishtirok etishlari mumkin.	5.1.12. На заседаниях Правления Банка могут участвуют Директора Департаментов с целью предоставления экспертного заключения по повестки дня.
5.2. BANK BOSHQARUVINING VAKOLATLARI	**5.2. КОМПЕТЕНЦИИ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА**
5.2.1. Bank Boshqaruvining vakolatlariga Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining va Bank Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari bank joriy faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi.	5.2.1. К компетенции Правления Банка относятся все вопросы руководства текущей деятельности Банка, за исключением вопросов, отнесенных к исключительной компетенции Общего Собрания акционеров и Наблюдательного совета Банка.
5.2.2. Bank Boshqaruviga Bank Boshqaruvining Raisi rahbarlik qiladi.	5.2.2. Правление Банка возглавляет Председатель Правления Банка.
5.2.3. Boshqaruv a'zolari lavozim yo'riqnomasida va ular bilan tuziladigan mehnat shartnomasida, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari qarorlarida, Bank	5.2.3. Члены Правления действуют в пределах компетенции и своих полномочий, определяемых должностной инструкцией, условиями заключенного с ними трудового

Kuzatuv kengashi qarorlarida, Bank Boshqaruvi Raisining farmoyishlarida, ushbu Nizomda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilab qo'yilgan o'z vakolatlari va majburiyatlari doirasida harakat qiladilar.	договора, решениями Общего собрания акционеров, решениями Наблюдательного совета Банка, Правления Банка, распоряжениями Председателя Правления Банка, настоящим Положением и законодательством Республики Узбекистан.
5.2.4. Bank Boshqaruvi Raisi ushbu Nizomga muvofiq, Bank faoliyatida bajariladigan vazifalar o‘zgargan taqdirda, Boshqaruv tarkibiga qo‘shimcha nomzodlarni kiritish bo‘yicha takliflar kiritish huquqiga ega.	5.2.4. Председатель Правления Банка в соответствии с настоящим Положением имеет право вносить предложения по включению в состав Правления дополнительных кандидатов, в случае изменения задач, выполняемых в деятельности Банка.
5.2.5. Bank Boshqaruvi o'z vakolatlari doirasida: a)Bank Boshqaruvi huzuridagi qo'mitalarning qarori bilan belgilangan cheklovlarga muvofiq bo'lmagan alohida shartlardagi kredit bitimlarini ko'rib chiqadi; b) Bank kredit faoliyatiga talluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi.	5.2.5. Правление Банка в рамках своих полномочий: а) рассматривает отдельные кредитные сделки, не соответствующих ограничениям, установленным решениями Комитетов при Правлении Банка; б) рассматривает другие вопросы, касающиеся кредитной деятельности Банка.
5.3. BANK BOSHQARUVI:	**5.3. ПРАВЛЕНИЕ БАНКА:**
Bank Ustavida belgilab qo'yilgan va/yoki bank Kuzatuv kengashi tomonidan topshirilgan vakolatlari doirasida:	**В рамках своих полномочий, определенных Уставом Банка и/или делегированных Наблюдательным советом Банка:**
5.3.1. Bankning joriy faoliyatiga rahbarlikni tashkil etadi, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining ijro etilishini ta’minlaydi;	5.3.1. организует руководство текущей деятельностью Банка, обеспечивает выполнение решений Общего собрания акционеров и Наблюдательного совета Банка;
5.3.2. Bankning tarkibiy bo'linmalari, filiallari va vakolatxonalarining faoliyatini tashkil etadi;	5.3.2. организует деятельность структурных подразделений Банка, его филиалов и представительств;
5.3.3. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan “Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish siyosati” doirasida yangi turdagi mahsulotlarni, shu jumladan “yashil” mahsulotlar, ijtimoiy kreditlar va ESG-instrumentlarni ishlab chiqish hamda joriy etishni tashkil qiladi;	5.3.3. организует разработку и внедрение новых видов продуктов, включая "зеленые" продукты, социальные кредиты и ESG-инструменты в рамках «Политики разработки и внедрения новых продуктов», утвержденной Наблюдательным советом Банка;
5.3.4. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-reja bilan belgilangan parametrlar miqdori va doirasida homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatadi, shuningdek, ushbu axborotning Bank veb-saytida oshkor qilinishini ta’minlaydi;	5.3.4. оказывает спонсорскую (благотворительную) или безвозмездную помощь в размере и в пределах, установленных параметров бизнес-планом, утвержденного Наблюдательным советом

5.3.5. Bank faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalarni (nizomlar, tartiblar va shu kabilar), Bankning tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni (Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno), shu jumladan Bank operatsiyalari, xat-xabarlari va hujjatlarini imzolash hamda rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi ichki hujjatlarni ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi.	Банка, а также обеспечивает раскрытие данной информации на веб-сайте Банка;
5.3.6. Bank siyosatlarini, shu jumladan ESG-tavakkalchiliklarini boshqarish va barqaror rivojlanish sohasidagi siyosatlarni ishlab chiqadi hamda ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun Bank Kuzatuv kengashiga kiritadi;	5.3.5. рассматривает и утверждает внутренние правила, регулирующие деятельность Банка (положения, порядки и т.п.), положения о структурных подразделениях Банка (за исключением вопросов, отнесенных к компетенции Общего собрания акционеров или Наблюдательного совета Банка), в том числе о порядке подписания и оформления банковских операций, корреспонденции и документации.
5.3.7. Bankning mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirishga oid ichki qoidani (nizomni) ishlab chiqadi hamda ular Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanganidan keyin ijrosini (ularga rioya etilishini) ta’minlaydi.	5.3.6. разрабатывает политики Банка включая в области управления ESG-рисками и устойчивого развития и вносит на рассмотрение и утверждение Наблюдательного совета Банка;
5.3.8. Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqadi, ularning amalga oshirilishini tashkil etadi hamda ijrosini ta’minlaydi;	5.3.7. Разрабатывает внутреннее правило (положение) Банка касательно оплаты труда и материального стимулирования, а также обеспечивает их соблюдение после утверждения Наблюдательным советом Банка.
5.3.9. Bankning joriy faoliyatiga, shu jumladan hisob va hisobotlarni yuritish, ichki nazorat, banklararo shartnomalar tuzish va bankning joriy faoliyatiga kiritilgan boshqa masalalar bilan bog'liq qarorlar qabul qiladi va bank operatsiyalarini amalga oshiradi;	5.3.8. разрабатывает программы развития и бизнес-планы Банка, организация их реализации и обеспечение их выполнения;
5.3.10. Xodimlarni tanlash, tayyorlash va ulardan foydalanish masalalarini ko‘rib chiqadi hamda ular bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;	5.3.9. принимает решение и проводит банковские операции, связанные с текущей деятельностью Банка, в том числе вопросы учета, отчетности, внутреннего контроля, заключения межбанковских договоров и другие вопросы, отнесенные к текущей деятельности Банка;
5.3.11. Bank majburiyatlarini berish, pul-hisob-kitob hujjatlari va xat-xabarlarni imzolashning umumiy shartlari hamda tartibini belgilaydi;	5.3.10. рассматривает и принимает решения по вопросам подбора, подготовки и использования кадров;
5.3.12. Bankning Bosh ofis va filiallarning ichki tashkiliy-funksional tuzilmasiga (bo‘lim/markaz/boshqarma va shu kabilar kesimida) (keyingi o‘rinlarda “tuzilma”) o‘zgartirishlar kiritadi va Bank Kuzatuv	5.3.11. устанавливает общие условия и порядок выдачи обязательств Банка, подписания денежно-расчетных документов и корреспонденций;
	5.3.12. Вносит изменения во внутреннюю организационно-функциональную структуру Головного офиса и филиалов Банка (в разрезе отделов/центров/управлений и т.п.) (далее — «структура») и представляет ее на

kengashiga ko‘rib chiqish va ma’qullash uchun taqdim etadi. Bank Boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan tuzilma Bank Kuzatuv kengashi tomonidan 10 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi bo‘yicha e’tirozlari bor/yo‘qligi to‘g‘risida Bank Boshqaruvini yozma ravishda xabardor qiladi, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tuzilma bo‘yicha qabul qilingan qarorlar bundan mustasno;	рассмотрение и одобрение в Наблюдательный совет Банка. Представленная Правлением Банка структура рассматривается Наблюдательным советом Банка в течение 10 рабочих дней, по результатам чего Наблюдательный совет в письменной форме уведомляет Правление Банка о наличии или отсутствии возражений, за исключением решений, принятых Наблюдательным советом Банка касательно структуры.
5.3.13. Bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi Bankning birinchi darajali kapitali miqdorining 10 foiziga teng bo‘lgan yoki undan oshmaydigan summadagi bitimlarni tuzish bo‘yicha qaror qabul qiladi.	5.3.13. принимает решение по заключению сделок, сумма которых равна или не превышает 10% от капитала первого уровня Банка на дату принятия решения о заключении таких сделок.
5.3.14. Strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarni, jumladan, tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular haqida axborot berish siyosatini, lozim darajada etarli kapitalni saqlab turish siyosatlarini amalga oshiradi;	5.3.14. реализовывать стратегические цели, политику корпоративного управления, другие внутренние политики Банка, в том числе по выявлению, управлению, мониторингу и информированию о рисках, поддержанию достаточности капитала на должном уровне;
5.3.15. Bankning tegishli va shaffof tashkiliy boshqaruv tuzilmasini, shu jumladan Bank xodimlari o‘rtasida vakolatlar va javobgarlikning taqsimlanishini ta’minlaydi;	5.3.15. обеспечивает соответствующую и прозрачную организационную структуру управления Банком, в том числе распределение полномочий и ответственности между работниками Банка;
5.3.16. Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;	5.3.16. осуществляет контроль за деятельностью работников Банка;
5.3.17. Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajaradi, shuningdek muntazam ravishda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga va Bank Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, Bankka nisbatan ko'rilgan choralar va sanksiyalar to'g'risida hisobot taqdim etadi;	5.3.17. выполняет принятый годовой бизнес-план Банка, а также регулярно представляет Общему собранию акционеров и Наблюдательному совету Банка отчет о проделанной работе, мерах и санкциях, примененных к Банку;
5.3.18. Boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilish uchun muhim axborot tayyorlanishini va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlaydigan ishonchli axborot tizimlarini yaratadi;	5.3.18. создает надежные информационные системы, обеспечивающие надлежащую подготовку и своевременное представление важной информации для принятия управленческих решений;
5.3.19. Bank Kuzatuv kengashini bankning moliyaviy ahvoli to'g'risida yoki uning yomonlashish xatari to'g'risida hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va tavakkalchilikka moyilliklar to'g'risida, tavakkalchilik limitlarining va prudentsial talablarning	5.3.19. информирует Наблюдательный совет Банка о финансовом положении Банка или о риске его ухудшения и изменения в бизнес-плане, стратегических целях, стратегии управления рисками и склонности к риску, нарушение лимитов риска и пруденциальных требований, ошибки во

buzilishi, ichki nazoratdagi xatoliklar to'g'risida xabardor etib boradi;	внутреннем контроле;
5.3.20. Belgilangan muddatlarda zarur va ochiq ma'lumotlarni oladi, shaxsiy malaka va tajribasiga tayangan holda ular bilan bog'liq chora-tadbirlarni ko'radi;	5.3.20. получает в установленные сроки необходимые и открытые сведения, принимает связанные с ними меры, а также принимает решения, основываясь на личной квалификации и опыте;
5.3.21. Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi;	5.3.21. соблюдает требования по недопущению конфликта интересов;
5.3.22. Tashkiliy-funksional tuzilmaning barcha darajalarida Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatlar, nizomlar, tartiblar va lavozim yo‘riqnomalariga rioya etilishini samarali monitoring qilish tizimini yaratadi, shuningdek, ushbu tizimning samaradorligini vaqti-vaqti bilan tekshirib boradi;	5.3.22. создает систему эффективного мониторинга соблюдения политик, положений, порядков и должностных инструкций, утвержденных Наблюдательным советом, на всех уровнях организационно-функциональной структуры, а также периодически проверяет эффективность данной системы;
5.3.23. Bankda yuzaga keladigan barcha muhim tavakkalchiliklarni tahlil qilishga qaratilgan jarayonlarning to‘liq joriy etilishini ta’minlaydi hamda ularning, shu jumladan jismoniy va o‘tish davri iqlimiy tavakkalchiliklarining Bankning risk-appetitiga muvofiqligini ta’minlaydi;	5.3.23. обеспечивает полноценное внедрение процессов, направленных на анализ всех существенных рисков, возникающих в Банке, и обеспечивает их соответствие риск-аппетиту Банка, включая физические и переходные климатические риски;
5.3.24. Bank xizmatlari uchun narxlarni (tariflarni) mazkur xizmatlar bilan bog'liq tavakkalchiliklar va xarajatlarni inobatga olgan holda belgilanishini ta'minlaydi;	5.3.24. обеспечивает установление цен (тарифов) на банковские услуги с учетом рисков и затрат, связанных с этими услугами;
5.3.25. Bankda tavakkalchiliklar holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shu jumladan ekologik, ijtimoiy (ESG) va iqlimiy tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha hisobotlarni, risk-appetit buzilishi holatlarini, bank faoliyatidagi hamda Bankning yangi mahsulotlaridagi muhim o‘zgarishlarni aks ettiruvchi hisobotlarning tayyorlanishi va har chorakda Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta’minlaydi;	5.3.25. обеспечивает подготовку и ежеквартальное представление Наблюдательному совету Банка отчетов, отражающих информацию о состоянии рисков в Банке, включая отчеты по управлению экологическими, социальными (ESG) и климатическими рисками, случаях нарушения риск-аппетита, значительных изменениях в банковской деятельности и новых продуктах Банка;
5.3.26. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etadi, ichki audit xizmati, auditorlik tashkilotlar, Markaziy bank va boshqa nazorat organlari tomonidan taqdim etilgan taklif va mulohazalarni bajarishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va uni Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi;	5.3.26. устраняет недостатки в системе управления рисками, разработывает меры по выполнению предложений и замечаний, представленных Департаментом внутреннего аудита, аудиторскими организациями, Центральным банком и другими контролирующими органами, и внесит их на утверждение Наблюдательного совета Банка.
5.3.27. Favqulodda moliyalashtirish rejasini, muammoli aktivlar bilan ishlash	5.3.27. разрабатывает и выносит на утверждение Наблюдательного совета

strategik rejasini, (kapital monandligini baholash maqsadida) kapital bo'yicha rejalarni ishlab chiqadi va Kuzatuv kengashi tasdig'iga taqdim etadi;	Банка: план по чрезвычайному финансированию, стратегический план работы с проблемными активами и план по капиталу (в целях оценки адекватности капитала);
5.3.28. Bank Boshqaruvi likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish siyosati asosida bank faoliyatining xususiyatlari hamda operatsiyalari murakkabligiga mutanosib bo'lgan likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi mumkin.	5.3.28. на основании политики управления рисками ликвидности может разрабатывать процессы управления рисками ликвидности, пропорциональные особенностям деятельности Банка и сложности его операций.
5.3.29. Muammoli aktivlarni boshqarishda Bank Boshqaruvi o‘z vakolatlari doirasida quyidagi vazifalarni bajaradi: a) Kuzatuv kengashga har chorakda bankdagi muammoli aktivlarning holati, muammoli aktivlar bilan ishlash siyosati va zarur hollarda strategik reja amalga oshirilishi yuzasidan hisobotlarni kiritib borish; b) muammoli aktivlarni boshqarishga doir qarorlarni qabul qilish; c) undirilgan mol-mulkni boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilish; d) muammoli aktivlar bilan ishlashga mas'ul xodimlarning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilab berish va ushbu jarayonni baholab borish; e) muammoli aktivlarni boshqarish uchun zarur axborot tizimlari joriy qilinishini ta'minlash.	5.3.29. При управлении проблемными активами Правление Банка в рамках своих полномочий выполняет следующие задачи: а) ежеквартально вносит Наблюдательному совету Банка отчеты о состоянии проблемных активов в Банке, о политике работы с проблемными активами и о реализации Стратегического плана; б) принимает решения по управлению проблемными активами; в) принимает решения по управлению взысканному имуществу Банка; г) устанавливает критерии оценки эффективности деятельности работников, ответственных за работу с проблемными активами, и проведение оценки этого процесса; д) обеспечивает внедрение необходимых информационных систем управления проблемными активами.
5.3.30. Komplaens nazorat departamentidan komplaens tavakkalchiligiga oid hisobotlarni har oyda kamida bir marotaba qabul qilish;	5.3.30. принимает отчеты о комплаенс-рисках от Департамента комплаенс контроля не реже одного раза в месяц;
5.3.31. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bank Ustavida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.	5.3.31. исполняет иные обязанности, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан, а также Уставом Банка.
5.4. BANK BOSHQARUVINING RAISI QUYIDAGILARGA HAQLI:	**5.4. ПРЕДСЕДАТЕЛЬ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА ВПРАВЕ:**
5.4.1. Bank nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda bankning manfaatlarini ifoda etadi;	5.4.1. без доверенности действовать от имени Банка, представлять его интересы во взаимоотношениях с другими организациями;
5.4.2. Bankning mol-mulki, pul mablag'larini amaldagi qonunchilikka muvofiq va unga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi.	5.4.2. распоряжаться в соответствии с действующим законодательством и предоставленными ему полномочиями имуществом и денежными средствами Банка.

5.4.3. Shartnomalarni, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzadi;	5.4.3. заключать договора, в том числе трудовые;
5.4.4. Ishonchnomalar beradi, shu jumladan, zarur hollarda ishonchnoma bo'yicha vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish huquqi bilan ishonchnomalar beradi;	5.4.4. выдавать доверенности, в том числе, при необходимости, с правом передоверия;
5.4.5. Bankning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi:	5.4.5. издавать приказы и распоряжения, обязательные для всех работников Банка;
5.4.6. Xodimlar shtatini tasdiqlaydi hamda unga va tuzilgan shartnomalarga muvofiq Bankning mansabdor shaxslarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, shuningdek, o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantiradi, mehnat majburiyatlarini buzganlik uchun intizomiy jazo choralarini qo‘llaydi;	5.4.6. утверждает штат работников и в соответствии с ним и заключенными договорами назначает и увольняет должностных лиц Банка, а также поощряет отличившихся работников, налагает дисциплинарные взыскания за нарушение трудовых обязанностей;
5.4.7. O'z o'rinbosarlarining va tarkibiy bo'linmalar boshliqlarining ularga topshirilgan ishlarning ahvoli bo'yicha javobgarlik darajasini belgilaydi;	5.4.7. устанавливать степень ответственности своих заместителей и руководителей структурных подразделений за состояние дел на порученных им участках;
5.4.8. xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan lavozim yo‘riqnomalari bundan mustasno;	5.4.8. утверждать должностные инструкции работников, за исключением должностных инструкций, утверждаемых Наблюдательным советом;
5.4.9. Boshqaruv raisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan boshqa masalalarni hal etadi.	5.4.9. решать другие вопросы, предусмотренные в трудовом договоре, заключенном с Председателем Правления.
5.5. BANK BOSHQARUVI RAISINING MAJBURIYATLARI:	**5.5. ОБЯЗАННОСТИ ПРЕДСЕДАТЕЛЯ ПРАВЛЕНИЯ:**
5.5.1. Bankning samarali va barqaror ishlashini ta’minlagan holda, uning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va Bank Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;	5.5.1. осуществляет руководство текущей деятельностью Банка, за исключением вопросов, отнесенных к исключительной компетенции Общего собрания акционеров и Наблюдательного совета Банка, обеспечивая его эффективную и устойчивую работу;
5.5.2. Boshqaruv faoliyatini hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi;	5.5.2. организация деятельности Правления и исполнения решений Общего Собрания акционеров и Наблюдательного совета Банка;
5.5.3. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali o'zaro munosabatlar o'rnatilishini ta'minlaydi;	5.5.3. обеспечение эффективного взаимодействия между всеми структурными подразделениями Банка;
5.5.4. Bankning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlaydi;	5.5.4. обеспечение выполнения договорных обязательств Банка;

5.5.5. Bank moliyaviy faoliyatini va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olinishini ta'minlaydi;	5.5.5. обеспечение получения прибыли в размерах, необходимых для развития деятельности Банка и социальной сферы;
5.5.6. Bankni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va biznes rejalarni ishlab chiqishga rahbarlik qiladi, ularning ijrosini tashkil etadi va nazorat qiladi;	5.5.6. руководство разработкой программ и бизнес-планов развития Банка, организация и контроль их исполнения;
5.5.7. Bank faoliyatida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydi;	5.5.7. обеспечение соблюдения требований законодательства в деятельности Банка;
5.5.8. Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, lozim darajadagi holati hamda ishonchliligini, yillik hisobot, shu jumladan barqaror rivojlanish (ESG) to‘g‘risidagi va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli organlarga, shuningdek, Bank faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aksiyadorlar, kreditorlar va ma’lumotlarning boshqa oluvchilariga o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlaydi. Bank Boshqaruvi raisi har chorakda Kuzatuv kengashiga yillik biznes-rejaning bajarilib borishi to‘g‘risida hisobot beradi;	5.5.8. обеспечивает организацию, надлежащее состояние и достоверность бухгалтерского учета и отчетности в Банке, своевременное предоставление ежегодного отчета, в том числе об устойчивом развитии (ESG) и другой финансовой отчетности в соответствующие органы, а также сведений о деятельности Банка, направляемых акционерам, кредиторам и иным получателям сведений. Председатель Правления Банка ежеквартально отчитывается перед Наблюдательным советом о ходе выполнения годового бизнес-плана;
5.5.9. Bank Kuzatuv kengashi, Tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens qo‘mitasi, Audit qo‘mitasi, Korporativ boshqaruv, xodimlarni tayinlash va rag‘batlantirish qo‘mitasi, Strategiya qo‘mitasi, Korporativ maslahatchi hamda Bankning Ichki audit departamenti talabiga ko‘ra Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni va boshqa hujjatlarini moneliksiz taqdim etadi;	5.5.9. беспрепятственно предоставляет документы о финансово-хозяйственной деятельности и иные документы Банка по требованию Наблюдательного совета Банка, Комитета по управлению рисками и комплаенс, Аудиторского комитета, Комитета по корпоративному управлению, назначениям и вознаграждению, Комитета по Стратегии, Корпоративного консультанта и Департамента внутреннего аудита Банка;
5.5.10. Davlat statistika hisobotlarining tegishli organlarga to‘liq va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlaydi;	5.5.10. обеспечивает полноту и своевременность предоставления государственной статистической отчетности в соответствующие органы;
5.5.11. Majburiyatlari doirasiga uchinchi shaxslarga taqdim etish vazifasi kiritilmagan bo‘lsa, tijorat va bank siriga oid axborotning maxfiyligini ta’minlaydi. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar ro‘yxati amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi;	5.5.11. обеспечивает конфиденциальность информации, составляющей коммерческую и банковскую тайну, если в круг его обязанностей не входит задача по ее предоставлению третьим лицам. Перечень сведений, составляющих банковскую тайну, определяется в соответствии с действующим законодательством;
5.5.12. Bank xodimlari tomonidan tijorat va bank siriga oid axborotning maxfiy	5.5.12. обеспечение сохранения информации, составляющей коммерческую

saqlanishini ta'minlaydi; 5.5.13. Bank Boshqaruvi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi, Boshqaruv majlislari bayonnomasini Bank nomidan imzolaydi; 5.5.14. Bankni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Bank xodimlari bilimlaridan, malakasidan, tajribasidan va iqtidorlaridan samarali foydalanish choralarini ko'radi; 5.5.15. Mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishini ta'minlaydi; 5.5.16. Bank xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnat muhofazasiga rioya etilishini ta'minlaydi; 5.5.17. Boshqaruv vakillarining jamoaviy muzokaralarda ishtirok etishini ta'minlaydi, jamoat shartnomasini tuzishda ish beruvchi sifatida ishtirok etadi hamda u bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi; 5.5.18. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga va Bank Kuzatuv kengashiga o'z vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha ishlar holati to'g'risidagi ma'ruzalarni (axborotlarni) belgilangan muddatlarda taqdim etadi; 5.5.19. Aksiyadorlar tomonidan qonunchilikda ko'zda tutilgan barcha axborotni olishlariga, asiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etishlariga va dividendlarni hisoblab yozish va to'lashga oid barcha huquqlariga rioya etilishini ta'minlaydi; 5.5.20. Ichki qoidalarga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydi.	и банковскую тайну, работниками Банка; 5.5.13. организация проведения заседаний Правления Банка, подписание от имени Банка протоколов заседаний Правления; 5.5.14. принятие мер по обеспечению Банка квалифицированными кадрами, по наилучшему использованию знаний, квалификации, опыта и способностей работников Банка; 5.5.15. поддержание трудовой и производственной дисциплины; 5.5.16. обеспечение соблюдения социальных гарантий и охраны труда работников Банка; 5.5.17. обеспечивает участие представителей Правления в коллективных переговорах, выступает в качестве работодателя при заключении коллективного договора и обеспечивает выполнение обязательств по нему; 5.5.18. в установленные сроки предоставляет Общему собранию акционеров и Наблюдательным советом Банка доклады о состоянии дел, относящихся к его компетенции; 5.5.19. соблюдение всех прав акционеров по получению ими предусмотренной действующим законодательством информации, участию в общих собраниях акционеров, начислению и выплате дивидендов; 5.5.20. соблюдение внутренних правил и действующего законодательства Республики Узбекистан.
6. BANK BOSHQARUVINING ISH TARTIBI 6.1. Bank Boshqaruvining majlislari muntazam ravishda o'tkaziladi. 6.2. Bank Boshqaruvining majlislari Bank Boshqaruvi Raisi yoki ko'rib chiqilayotgan masalalarning tegishliligi bo'yicha uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan o'tkaziladi. 6.3. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi mustaqilligini ta'minlash va haddan tashqari yuqori tavakkalchiliklarning oldini olish maqsadida, Tavakkalchiliklarni boshqarish	**6. ПОРЯДОК РАБОТЫ ПРАВЛЕНИЯ БАНКА** 6.1. Заседания Правления Банка проводятся на систематической основе. 6.2. Заседания Правления Банка проводит Председатель Правления Банка либо один из его заместителей по принадлежности рассматриваемых вопросов. 6.3. В целях обеспечения независимости системы риск-менеджмента и предотвращения чрезмерных рисков, Директор Департамента управления

departamenti direktori Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadigan har qanday qarorlarga veto qo‘yish (“Veto”) huquqiga (asoslantirilgan sabablarni bayon qilgan holda) ega bo‘ladi, agar ushbu qarorlar, uning ekspertlik fikriga ko‘ra, belgilangan risk-appetit limitlarini buzsa, qarz oluvchilarning ESG-tavakkalchiliklari yo‘l qo‘yiladigan darajasidan oshib ketgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prudensial normativlarini buzsa yoki Bank uchun jiddiy (kritik) zararlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa.	рисками наделяется правом наложения вето («Вето») на любые решения Правления Банка (с изложением мотивированных оснований), если они, по его экспертному мнению, нарушают установленные лимиты аппетита к риску, превышают допустимый уровень ESG-рисков заемщиков, пруденциальные нормативы Центрального банка Республики Узбекистан или могут повлечь критические убытки для Банка.
6.4. Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti direktori tomonidan “Veto” huquqi qo‘llanilgan taqdirda, masalaning ko‘rib chiqilishi to‘xtatib turiladi va bu haqda Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti direktori Bank Kuzatuv kengashini zudlik bilan xabardor qiladi.	6.4. В случае наложения Директором Департамента управления рисками права «Вето», рассмотрение вопроса приостанавливается, о чём Директор Департамента управления рисками незамедлительно уведомляет Наблюдательный совет Банка.
6.5. Bank Boshqaruvi majlisi, agar unda Boshqaruv a’zolarining kamida yetmish foizi ishtirok etsa, kun tartibiga kiritilgan masalalarni hal qilishga (qarorlar qabul qilishga) haqli (vakolatli) hisoblanadi.	6.5. Заседание Правления Банка правомочно принимать решения по вопросам, включенным в его повестку дня, если в заседании принимают участие не менее семидесяти процентов членов Правления.
6.6. Bank Boshqaruvi majlislari Boshqaruv a’zolarining birgalikdagi ishtiroki shaklida (sirtqi bo‘lmagan shaklda), shu jumladan Bank Boshqaruvi tomonidan masalalarni ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtiradigan maxsus dasturiy vositalardan foydalangan holda o‘tkazilishi mumkin. Bank Boshqaruvi majlislarini birgalikdagi ishtirok shaklida o‘tkazish uchun texnik aloqa vositalari (videokonferensaloqa va shu kabilar) qo‘llanilishi mumkin.	6.6. Заседания Правления Банка могут проводиться в форме совместного присутствия членов Правления (очная форма), в том числе с использованием специализированных программных продуктов, оптимизирующих процесс рассмотрения и принятия решений Правлением Банка. Для проведения заседаний Правления Банка в форме совместного присутствия могут применяться технические средства связи (видеоконференцсвязи и т.д.).
6.7. Bank Boshqaruvi majlisini o'tkazish shakli to'g'risidagi ma'lumot Majlis o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatiladi.	6.7. Информация о форме проведения заседания Правления Банка указывается в уведомлении о проведении заседания.
6.8. Bank Boshqaruvi kotibi Bank Boshqaruvi majlislari bayonnomalarining yuritilishini tashkil etadi.	6.8. Секретарь Правления Банка организовывает ведение протоколов заседаний Правления Банка.
6.9. Bank Boshqaruvi majlisining bayonnomasi u o‘tkazilgandan keyin o‘n kundan kechiktirmay tuziladi.	6.9. Протокол заседания Правления Банка составляется не позднее десяти дней после его проведения.
6.10.Bank Boshqaruvi majlisi bayonnomalaridan ko‘chirmalar/ bayonnomalarning nusxalari quyidagilarga beriladi:	6.10. Выписки из протоколов/копии протоколов заседания Правления выдаются:

6.10.1. Bank Kuzatuv kengashiga; 6.10.2. Korporativ maslahatchiga; 6.10.3. Boshqa mansabdor shaxslar va auditorning so'roviga ko'ra, Bank Boshqaruvi raisining ruxsati bilan; 6.10.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarga va organlarga.	6.10.1. Наблюдательному совету Банка; 6.10.2. Корпоративному консультанту; 6.10.3. по запросам иных должностных лиц и аудитора с разрешения Председателя Правления Банка; 6.10.4. другим лицам и органам в случаях, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан.
7. SAQLASH 7.1. Ushbu Nizomning asl nusxasi Yuridik departamentda saqlanadi. Ushbu Nizomning elektron nusxasi .PDF formatida umumiy serverda foydalanish uchun saqlanadi. Ushbu Nizomning elektron nusxasi .DOCX formatida uni ishlab chiquvchida va Yuridik departamentda keyinchalik o'zgartishlar kiritish uchun saqlanadi.	**7. ХРАНЕНИЕ** 7.1. Оригинальный экземпляр настоящего Положения хранится в Юридическом департаменте. Электронный экземпляр в формате .PDF хранится на общем сервере для пользования. Электронный экземпляр настоящего Положения в формате .DOCX хранится у разработчика и в Юридическом департаменте для последующего внесения изменений.
8. XULOSA 8.1. Ushbu Nizom bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi. 8.2. Ushbu Nizom tasdiqlanganidan keyin uni amalga oshirish vakolatlari bank boshqaruvining raisiga o'tadi va u Nizomni ijro etishga oid zarur chora-tadbirlarni tashkillashtiradi. 8.3. Ushbu Nizom tasdiqlangan paytdan boshlab Aksiyadaorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan (23.06.2023-y. ro'yx. ПК №27; 23.06.2023-yildagi 59-sonli bayonnoma) "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyatining Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotadi. 8.4. Ushbu Nizomning rus va o'zbek tillaridagi matnlari o'rtasida har qanday tafovutlar (nomuvofiqliklar) yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.	**8. ЗАКЛЮЧЕНИЕ** 8.1. Настоящее Положение о Правлении вступает в силу с момента утверждения его Общим Собранием Акционеров Банка в установленном порядке. 8.2. После утверждения настоящего Положения, полномочия по его реализации передаются Председателю Правления Банка, который организует необходимые мероприятия по его исполнению. 8.3. С момента утверждения настоящего Положения, Положение «О Правлении Акционерного общества «Invest Finance Bank»», утвержденный Общим собранием акционеров (Рег. ПК №27 от 23.06.2023г.; Протокол № 59 от 23.06.2023г.) утрачивает свою силу. 8.4. В случае каких-либо расхождений между русским и узбекским текстами настоящего Положения, преимущественную силу имеет узбекский текст.

KELISHILGAN/СОГЛАСОВАНО:

Sh.B. Mirzaraximov/
Мирзарахимов Ш.Б.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____ 2026 y./г.

F.S. Isxakova /
Исхакова Ф.С.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

O.O. Bakirov /
Бакиров О.О.
F.I.Sh./Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

M.A. Sabirdjanova /
Сабирджанова М.А.
F.I.Sh./ Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

A.U. Rejamatov /
Режаматов А.У.
F.I.Sh./ Ф.И.О. Imzo /подпись «___» _____2026 y./г.

ISHLAB CHIQILGAN/РАЗРАБОТАНО:

Korporativ maslahatchi/Корпоративный консультант
Lavozim/Должность

L.U. Raxmatullayeva/
Рахматуллаева Л.У.
F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo/Подпись

Sana/Дата

Hujjatning amal qilish muddati /Срок действия документа:

С 30.06.2026-yildan/г. по 29.06.2027 yilgacha/г.

Muddati uzaytirilgan /Продлен до «_____»_____ 202____-yil./г.

Nusxa/Копия № ____
Tarqatish sanasi/Дата рассылки
15.07.2026-yil./г.

(hujjatni yuborishda hujjatlarni boshqarish uchun mas'ul shaxsning asl imzosi /оригинальная подпись ответственного за управление документом при рассылке документа)

«Invest Finance Bank»
aksiyadorlik jamiyati

ISO 9001:2015

YURIDIK XULOSA IO3-358

Yuridik departamenti tomonidan "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyatining Boshqaruvi to'g'risida nizom" loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur loyiha:

- O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-sonli Qonuni;
- "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatga olingan; ro'yxat raqami; 3254);
- "InFinBank" AJning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu loyiha "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 05.04.2000-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami: 916) talablariga javob beradi.

Yuridik departament direktori **H.G'. Murodov**

Metodologiya bo'limi boshlig'i H.B. Abdisattorov

2026-yil 5-iyun